

**OLIV TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH  
VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.09.2023.Ped.173.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**ESHCHANOVA XOLIDA XUDAYAROVNA**

**ICHKI TURIZM ASOSIDA YOSHLAR MA'NAVIV-AXLOQIV  
FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK  
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on pedagogical sciences**

**Eshchanova Xolida Xudayarovna**

Ichki turizm asosida yoshlar ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish.....3

**Эшчанова Холида Худаяровна**

Совершенствование педагогических механизмов формирования духовно-нравственных качеств молодежи на основе внутреннего туризма.....25

**Eshchanova Kholida Khudayarovna**

Improving pedagogical mechanisms for the formation of spiritual and moral qualities of youth based on domestic tourism.....49

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

**Список опубликованных работ**

List of published works.....53

**OLIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH  
VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.09.2023.Ped.173.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**ESHCHANOVA XOLIDA XUDAYAROVNA**

**ICHKI TURIZM ASOSIDA YOSHLAR MA'NAVIY-AXLOQIY  
FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK  
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PHD/Ped4441 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) bajarilgan hamda Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.bimm.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Ismailova Shamsiya Kurultayevna**  
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Mardonov Shukurullo Quldashovich**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Quronov Muhammadjon**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Qoraqalpoq davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti huzuridagi PhD.03/30.09.2023.Ped.173.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "25" 04 kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 3-uy, tel.: (99871) 202-01-20, e-mail: info@bimm.uz).

Dissertatsiya bilan Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (17 -raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 3-uy, tel.: (99871) 202-01-20, e-mail: info@bimm.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "01" 04 kuni tarqatildi.  
(2025-yil "01" 04 dagi 17 raqamli reyestr bayonnomasi).



**U.Sh.Begimkulov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi,  
p.f.d., professor

**A.S.Djurayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash kotibi,  
PhD, dotsent

**Ya.U.Ismadiyarov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash qoshidagi  
ilmiy seminar raisi,  
p.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon ta'lim tizimi taraqqiyotining asosiy omillari qatorida yoshlarni turistik faoliyatga jalb qilish orqali ularda ma'naviy-axloqiy fazilatlarini yuksaltirishning samarali pedagogik mexanizmlari amaliyotga tadbiiq etilmoqda. YuNESKO xalqaro tashkiloti tomonidan qabul qilingan "Ta'lim 2030/Inchxon deklaratsiyasi"<sup>1</sup> asosida ta'lim tizimining barcha bosqichlari va tuzilmalarida hamma uchun butun hayoti davomida sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini yaratish, samarali va qulay o'qitish usullarini tadbiiq qilish, bu o'rinda xalqaro turizm, turizm tarixi, madaniyatlararo muloqot qilishni yoshlar tarbiyasiga ta'siri, turizm imkoniyatlaridan shaxsni rivojlantirish va ijodiy qobiliyatlarni takomillashtirish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Dunyo ta'lim va ilmiy tadqiqod tashkilotlarida yoshlarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish, bo'lajak mutaxassislarning turistik faoliyatini yangi mazmunda bo'sh vaqtlarni mazmunli tashkil etish, turizm imkoniyatlarini shaxsni rivojlantirishga yo'naltirish, dam olish, madaniyat, tarix va hayotni o'rganishni birlashtirish, tarixiy ma'daniy meros asosida shaxsni rivojlantirish jarayonini amalga oshirish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Milliy mentalitet, an'analar, maskanlarni sayohat qilish, turistik sayohatlar uyushtirish, me'moriy obidalar tarixini o'rganish, ma'naviy madaniyatning nodir namunalarini o'zida saqlagan me'morchilik qadamjoylarini ziyorat etish jarayonlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda so'ngi yillarda talabalarni kasbiy tayyorlash omili sifatida ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish, talaba-yoshlarni turizmga faol jalb qilish, turistik faoliyatda ularning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. Prezidentimiz ta'kidlaydiki: "Bir haqiqatni barchamiz chuqur anglab olishimiz kerak: milliy tarixni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizga milliy ruhda yetkazish, ularning qalbiga, shuuriga singdirish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta'siri bo'lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o'rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur". Bu ezgu vazifalarni ro'yobga chiqarishda ichki turizmning o'rni va ahamiyati juda muhim hisoblanadi. Natijada, yoshlarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari kengaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 28-iyuldagi PQ-3160-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida", 2023-yil 13-iyuldagi PQ-223-son "Xiva-2024-yilda Islom dunyosining turizm poytaxti" xalqaro tadbiriga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 3-fevraldagi PF-5326-son "O'zbekiston Respublikasida turizm salohiyatini

---

<sup>1</sup> Incheon Declaration/Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (World Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea).

rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida", 2021-yil 9-fevraldagi PF-6165-son "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-fevraldagi "Ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 100-son va 2021-yil 3-martdagi 119-son "Moddiy-madaniy meros obyektlari va YuNESKOning Umumjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan hududlar muhofazasini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari<sup>2</sup> va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Respublikamizda A.Zunnunov, A.Q.Munavvarov, B.Ziyomhammadov, G.I.Maxmutova, I.Y.Tursunov, J.Y.Xasanboyev, K.Xoshimov, M.X.Toxtaxodjayevo, M.Quronov, M.O.Inomova, N.G'aybullayev, O.Musurmanova, Q.Q.Qurbonboyev, R.Mavlonova, R.Yodgorov, S.Nishonova, U.I.Maxkamov, O'N.Nishonaliyev, Sh.Mardonovlar Sharq allomalarining ma'naviy-axloqiy qarashlari, yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarining ahamiyatini, axloqiy madaniyatni tarkib toptirish, oilada milliy qadriyatlar asosida bolalarni ma'naviy tarbiyalash masalalarini; A.Taksanov, A.A.Eshtayev, B.Sh.Safarov, D.Sh.Nafasov, I.S.Tuxliyev, M.Q.Pardayev, M.R.Boltabayev, M.T.Aliyeva, M.T.Alimova, N.T.Tuxliyev, N.Ibadillayev, T.Abdullayevalar turistik faoliyatda talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish, J.Sh.Xoshimov O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishning muammolari, S.Jo'rayeva "O'zbekistonning janubiy hududlaridagi ziyoratgohlar tarixi va ularning mahalliy aholi hayotida tutgan o'rni" mavzusida ilmiy izlanishlar olib borishgan. Respublikamiz olimlari tomonidan turizmning turli jihtlari o'rganilgan, lekin ichki turizm asosida yoshlarni ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish masalasi tadqiqot obyekti sifatida deyarli tadqiq etilmagan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida A.Yu.Aleksandrova, E.I.Bagdanov, I.Yu.Kojekova, I.P.Glushkova, L.A.Fedotova, S.Yu.Jeteniyov, T.A.Prokopenko, V.P.Litvinovlar tadqiqotlarida xalqaro turizm, ichki turizm masalalari, turizmning ijtimoiy-madaniy hayotga ta'siri, turizm tarixi, ichki turizmining iqtisodiy, geografik va tarixiy rivojlanishini tadqiq etishgan.

---

<sup>2</sup> lex.uz: O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.

Xorijlik olimlar A.S.Ron, D.J.Timoti, D.H.Olsen, D.Marin, E.Cohen, G.Richard, G.C.Valintine, I.Petroman, K.Griffin, M.D.Giovine, N.Carr, R.Raj, R.Polus, S.Busatto, S.Singh, T.Walters, Z.Baumann, O'Go'zel, C.K.Noga, C.Petromanlar madaniy turizmning rivojlanishi, ichki turizmining nazariy masalalari shaxs ma'naviyatini yuksaltirishga, yoshlar dunyoqarashini shakllanishiga ta'siri, ichki turizmining oziga xos jihatlari, sayyohlar o'rtasidagi munosabatlarni tadqiq etishgan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Urganch davlat universiteti ilmiy tadqiqot rejasiga muvofiq "Ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirish va ilmiy salohiyatni oshirishga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlar dasturi" doirasida bajarilgan (2022-2024-yy.).

**Tadqiqotning maqsadi** ichki turizm asosida yoshlar ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

ichki turizm asosida yoshlar ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha nazariy-metodologik yondashuvlarini aniqlash;

yoshlar ma'naviy-axloqiy fazilatlarini ichki turizm asosida shakllantirish modelini mukammallashtirish;

yoshlar ma'naviy-axloqiy fazilatlarini ichki turizm asosida shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish;

ichki turizm asosida yoshlar ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** ichki turizm asosida yoshlar ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish jarayoni bo'lib, tajriba-sinov ishlarida Urganch davlat universiteti, Buxoro davlat universiteti, Nukus davlat pedagogika institutidan 450 nafar respondent-talaba ishtirok etgan.

**Tadqiqotning predmetini** ichki turizm asosida yoshlar ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish shakl, metod va vositalari tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda adekvat holatni o'rganishga qaratilgan usullar majmui qo'llanildi: nazariy (tahliliy, qiyosiy-taqqoslash, modellashtirish, analogiya), diagnostik (so'rovlar, kuzatish, test o'tkazish, loyihalashtirilgan metodikalar), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish), pedagogik tajriba-sinov va matematik metodlar (ma'lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash va boshq.).

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

yoshlar ma'naviy-axloqiy fazilatlarini ichki turizm asosida shakllantirishni pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishning tarixiy, ijtimoiy-madaniy, aksiologik, madaniyatlararo muloqot, pedagogik-psixologik, motivatsion-faoliyatli kabi nazariy-metodologik yondashuvlari ichki turizmning pedagogik imkoniyatlarini ochib berish asosida aniqlashtirilgan;

ichki turizm asosida yoshlar ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish modeli didaktik, pedagogik-psixologik, tashkiliy-mintaqaviy, kommunikativ, hamkorlikda ishlash, ma'naviy-axloqiy norma va talablar asosida tizimlashtirilgan o'quv-tarbiyaviy topshiriqlar, tarbiya shakllari, usullari va vositalarini auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarga differensial-tizimli kiritish asosida takomillashtirilgan;

yoshlar ma'naviy-axloqiy fazilatlarini ichki turizm asosida shakllantirish mexanizmlari yoshlar kasbiy kamolotini ifodalovchi ta'lim-tarbiyaviy, ma'naviy-axloqiy, kognitiv, aksiologik, shaxsiy-operatsion, baholovchi-refleksiv omillar ichki turizm hamda sayyohlik faoliyati tendensiyalari va istiqbollari yoritish, turistik dasturlarning ma'naviy-axloqiy mazmunini boyitish, ta'lim-tarbiya va turizmni integratsiya qilish, texnologiyalardan foydalanish, motivatsiya va rag'batlantirish asosida mukammallashtirilgan;

ichki turizmning madaniy, tarixiy meros, etnografik, sport-sog'lomlashtiruvchi, ziyorat va rekreatsion faoliyat, pedagogik-psixologik xususiyatlari, davlat va jamiyat siyosati, tadqiqot natijalarini inobatga olgan holda yoshlarni ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning didaktik ta'minoti axborotli muhit talablari hamda geografik hudud xususiyatlaridan kelib chiqib, ilmiy-metodik ishlanmalar va metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

“Turizm pedagogikasi” nomli darslik, “Ijtimoiy pedagogika”, “Pedagogik kompetentlik” nomli o'quv qo'llanmalar ishlab chiqildi;

ichki turizm asosida yoshlar ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishning samarali metod va vositalarini qamrab olgan pedagogik model takomillashtirildi;

yoshlar ma'naviy-axloqiy fazilatlarini ichki turizm asosida shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha samarali ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** olingan tadqiqot natijalari tarixiy, falsafiy, pedagogik-psixologik, madaniyatshunoslikka oid yutuqlarga tayanilganligi, pedagogik hodisa va jarayonlarni o'rganishga tizimli yondashilgani, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya, etnopedagogik yondashuvlardan foydalanilgani, ichki turizm asosida yoshlar ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishning pedagogik nazariyasi va amaliyoti takomillashtirilgani, qo'llanilgan usullar ilmiy-metodik asoslangani, nazariy ma'lumotlarni rasmiy manbalardan olingani, pedagogik tadqiqotning empirik va nazariy usullaridan foydalanilgani, keltirilgan dalillar, tahlillar, tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik-statistik metodlar asosida aniqlangani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning ilmiy ahamiyati ichki turizm asosida yoshlar ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish muammosini hal qilishga yo'naltirilgan konseptual-metodologik yondashuv, samarali pedagogik mexanizmlar belgilab berilgani, ichki turizmning pedagogik imkoniyatlaridan foydalanishga oid nazariy-fundamental tushunchalar, tamoyillar,



omillar, ijtimoiy-madaniy va pedagogik-psixologik shart-sharoitlar aniqlangani, ichki turizm asosida yoshlar ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishning asosiy mezonlari va pedagogik modeli ishlab chiqilgani, ilmiy-metodik tavsiyalarga boyitilganligiga asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati ilmiy-metodik tavsiyalardan Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi xodimlari o'zlarining ko'rsatma hamda tavsiyalar ishlab chiqish bilan bog'liq faoliyatida, pedagog olimlar o'zlarining metodik va ilmiy ishlarida, oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilari ichki turizm asosida yoshlarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishga oid tarbiyaviy ishlarni tashkillashtirishlarida, ichki turizmning pedagogik imkoniyalaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha o'quv qo'llanmalar va metodik tavsiyalar ishlab chiqishda, akademik guruh rahbarlari (tyutorlar) talabalar bilan ma'naviy-ma'rifiy, qadriyatli hamkorlik ishlarni tashkil qilishda foydalanishi mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Ichki turizm asosida yoshlar ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishga oid tadqiqot natijalari hamda ishlab chiqilgan ilmiy va amaliy takliflar asosida;

yoshlar ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishga ta'sir etuvchi ijtimoiy-madaniy, aksiologik, kommunikativ, pedagogik, motivatsion omillar, nazariy-metodologik yondashuvlar, ichki turizmning pedagogik mazmuni va mohiyatini ochib berish asosida aniqlashga oid takliflar "Turizm pedagogikasi" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2025-yil 14-yanvardagi 11-05-230/04-son dalolatnomasi). Natijada, talabalarning ichki turizm bo'yicha bilim, ko'nikmalari rivojlangan;

yoshlar ma'naviy-axloqiy fazilatlarini o'quv-tarbiyaviy komponentlar asosida shakllantirishning nazariy-pedagogik modeli va o'qituvchilarning zamonaviy pedagogik faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalar "Ijtimoiy pedagogika" o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2025-yil 14-yanvardagi 11-05-230/04-son dalolatnomasi). Natijada, "Ijtimoiy pedagogika" o'quv qo'llanmasi mazmun jihatdan boyitilgan;

yoshlarning kasbiy kamolotini xarakterlovchi ta'lim-tarbiyaviy, ma'naviy-axloqiy, kognitiv, aksiologik, shaxsiy-operatsion, baholovchi-refleksiv omillar ichki turizm asosida madaniy-ma'naviy meros, motivatsion va qadriyatli xususiyatlar mazmuni shakl, metod va vositalari bilan sinergetik integratsiyalashishi orqali takomillashtirishga oid takliflar "Pedagogik kompetentlik" o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2025-yil 14-yanvardagi 11-05-230/04-son dalolatnomasi). Natijada, yoshlarning kasbiy kamolotini xarakterlovchi xususiyatlari: ma'naviy-axloqiy tarbiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga munosabati darajasi oshgan;

oliy ta'lim muassasalari talabalarining ilmiy, madaniy, ichki, sport-sog'lomlashtiruvchi, etnografik, rekreatsion turistik faoliyatida intellektual

rivojlantirishga yoʻnaltirilgan pedagogik jarayonning maʼnaviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan pedagogik tizim modeli, didaktik taʼminotiga oid takliflar “Turizm pedagogikasi” nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Oliy taʼlimni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2024-yil 8-noyabrdagi 02/01/01-145 raqamli maʼlumotnomasi). Bu esa, “Turizm pedagogikasi” fanining mazmunini boyitishga hamda talaba-yoshlarning ichki turizm asosida maʼnaviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan oʻtgan.

**Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi boʻyicha jami 20 ta ilmiy ish eʼlon qilingan boʻlib, jumladan, respublika jurnallarida 7 ta, xorijiy jurnallarda 2 ta maqola nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 134 sahifani tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi koʻrsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Ichki turizm asosida yoshlar maʼnaviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishning nazariy asoslari**” deb nomlanib, mazkur bobda ichki turizmning taʼlim-tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanishning tarixiy asoslari oʻrganilgan, turistik faoliyat va yoshlar turizmining nazariy-metodologik jihatlari, turizmning didaktik tamoyillari va yoshlar tarbiyasiga taʼsiri mazmuni hamda ichki turizmning pedagogik imkoniyatlaridan foydalanishning nazariy asoslari mavjud adabiyotlar, direktiv hujjatlarga tayangan holda asoslab berilgan.

Jamiyat va iqtisodiyotni rivojlantiruvchi kuchi sifatida turizm ijtimoiy-falsafiy jihatdan chuqur tahlilni talab etadigan eng muhim ijtimoiy-madaniy faoliyatga aylanmoqda. Hozirda turizm sohasi boʻyicha olib borilayotgan koʻpchilik dolzarb tadqiqotlar koʻp jihatdan fragmentar, yaʼni tor doirada, ular turizmni umumlashtirib oʻrganishga moʻljallanmagan va bu esa, turizmni har tomonlama tadqiq qilish, shuningdek, pedagogik imkoniyatlarini ham toʻlaqonli oʻrganish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Prezidentimizning 2022-yil 28-yanvardagi farmoni bilan tasdiqlangan “2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da turizm va madaniy meros obyektlari infratuzilmasini rivojlantirish hamda 8 mingdan ortiq madaniy meros obyektidan samarali foydalanish, ichki turizm salohiyatini targʻib qilish orqali 2026-yilda “Oʻzbekiston boʻylab sayohat qiling” dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 mln. nafardan oshirish, yangi turizm

yoʻnalishlari va mahsulotlarini taqdim qilish, jumladan, turizm qishlogʻi, eko, agro turizm va gastronomik koʻchalar, turizm marshrutlarini yoʻlga qoʻyish, Xorazm viloyatida turizm boʻyicha yangi ish oʻrinlarini yaratishda drayver sohasi boʻlishi maqsadida alohida dastur qabul qilish, “Manguberdi Vataniga sayohat” nomli ichki turizm dasturi orqali har yili 500 mingdan ziyod oʻquvchi, talaba-yoshlar va pensionerlarning Xorazmga safarini tashkil etish, Ichan – qalʼadagi Najmiddin Kubro saboq bergan Shayx Kabir masjidi, xonaqoh hamda chillaxonani rekonstruksiya qilish, ziyoratgohga aylantirish, Navoiy viloyatida ziyorat va ekoturizm salohiyatidan samarali foydalanish vazifalari belgilab berildi. Bu esa, mamlakatimizda ichki turizmni rivojlantirish uchun jiddiy asoslardan biridir.

Sharq va Gʻarb mutafakkirlarining hayotiy yoʻllari hamda ilmiy izlanishlari, sayyohlik faoliyatlari umumjahon tarixida alohida ahamiyatga ega. Markaziy Osiyolik allomalarning deyarli koʻpchiligi butun hayoti davomida sayohat qilishgan, sayohatlari davomida ilmiy izlanishlar olib borishgan, hayotiy tajriba orttirishgan toʻplagan tajribalari asosida oʻzlaridan boy maʼnaviy, ilmiy meros qoldirishgan. Shu asnoda ular ilmiy turizmning rivojlanishiga katta hissa qoʻshishgan. Turizm tarixi uzoq oʻtmishga borib taqaladi. Dunyoda ichki turizmning rivojlanish tarixi turli jamiyatlarning madaniyati, iqtisodiyoti va ijtimoiy munosabatlariga taʼsir koʻrsatuvchi uzoq evolyutsiya hamda oʻzgarishlar yoʻlini qamrab oladi. Ichki turizmning shakllanishi qadimgi davrlarga borib taqaladi va zamonaviy dunyoda muhim taʼsir koʻrsatishda davom etmoqda. Bugungi kunda ham turizmning pedagogik imkoniyatlaridan samarali foydalanish, uning yoshlar maʼnaviy-axloqiy tarbiyasiga ijobiy taʼsirini oʻrganish davr talabiga aylanib bormoqda.

Markaziy Osiyo xalqlari maʼnaviy-axloqiy hayotida insonlarning sayohat qilishi va ilm bilan shugʻullanishlari, tarixiy-madaniy obyektlarning aholi maishiy turmush tarziga ijobiy taʼsirini pedagogik rakursda tadqiqot obyekti sifatida oʻrganish alohida oʻrin egallaydi. Mamlakatimizda mavjud turistik obyektlarga sayohat qilishning shaxs kamolotidagi oʻrni va ahamiyati masalalari falsafa, madaniyatshunoslik, psixologiya, tibbiyot psixologiyasi, sotsiologiya, xalq pedagogikasi hamda pedagogika tarixi nuqtayi nazaridan nazariy metodologik asosda tadqiq qilishni talab etadi. Tadqiqot muammosini fanlar integratsiyasi asosida oʻrganish muayyan jamiyatda amal qilinadigan qarashlardagi moddiy hamda maʼnaviy-axloqiy qadriyatlarining insonparvarlik mohiyatini yoritib berish va ulardagi vatanparvarlik, tolerantlik, axloqiylik, muruvvatlilik kabi gʻoyalar orqali yuksak taraqqiy etgan, maʼnaviy-axloqiy fazilatlarini oʻzida mujassamlashtirgan komil inson siymosini shakllantirishni nazarda tutadi.

Tarixan ming yilliklar, evrilishlar natijasida shakllangan oʻzbek xalqining hayotiy turmush tarzida ham shakllangan oʻz milliy urf-odatlarini bilan boʻgʻliq anʼanalar saqlanib, sayqallanib kelmoqda. Xalqimiz hayotida turistik obyektlar, buyuk tarixiy shaxslar (Imom Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshbandiy, Imom at-Termiziy va boshq.) bilan bogʻliq turli tarixiy-madaniy obyektlar, ayrim tabiat xodisalari va predmetlari bilan bogʻliq joylarni (togʻlar, chashmalar, teshik tosh gʻori va boshq.) tashkil qiladi. Oʻzbekiston hududidagi turistik obyektlar masalasi, ularning nomi bilan boʻliq shaxslarning maqomi va

darajasini olimlarimiz o'z tadqiqotlarida tadqiq qilishgan. Mamlakatimizdagi turistik obyektlarning o'rni va ularga doir ilmiy tadqiqot ishlari ko'plab olimlar tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, ularning aksariyati bu yo'nalishni turizmning tarkibiy qismi sifatida e'tirof etishadi.

*Ichki turizm* – bu bir mamlakat fuqarolarining o'z mamlakatida turli hududlar va joylarga sayohat qilish, dam olish, madaniy, tarixiy, tabiat va ijtimoiy obyektlarni o'rganish, yangi tajribalar orttirish va turistik xizmatlardan foydalanish faoliyatidir.

Tadqiqotimizning asosiy maqsadi ichki turizm asosida yoshlarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan ekan, bu o'rinda turizmning ta'lim-tarbiyaviy imkoniyatlarini kengroq tadqiq qilishni taqozo etadi. Talaba-yoshlar turistik faoliyatining pedagogik jarayondagi o'rni uning bo'lajak mutaxassislarni ijtimoiy-madaniy hamda ma'naviy-axloqiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatishi va ko'maklashishi bilan belgilanadi. Jumladan, shaxsni shakllantirish ma'nosida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mohiyatini anglashi, ma'naviyat hamda milliy madaniyat to'g'risida yaxlit tasavvurga ega bo'lishi, ijodiy qobiliyatlarni rivojlanishi, ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllanishini nazarda tutadi. Ijtimoiy nuqtayi nazardan turizm yoshlarda ijtimoiy madaniyat, ayniqsa, ijtimoiy axloq, xulq-atvor, muloqot va kommunikativlikni shakllanishiga ko'maklashadi.

Turistik faoliyatning asosiy vazifalari qatorida ta'limiy, tarbiyaviy, kommunikativ, motivatsion, rekreatsion (dam olish), mafkuraviy va bo'sh vaqtni mazmunli tashkil qiluvchi vazifalari alohida ko'rsatib o'tilgan. Ba'zi tadqiqotchilar tomonidan turistik-ekskursion faoliyatning asosiy vazifalariga ta'rif berilganida quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratilgan: turizmning pedagogik imkoniyatlaridan shaxsni rivojlantirish, uning ma'naviy-axloqiy, kreativ qobiliyatini ro'yobga chiqarish, bilimlarini chuqurlashtirish maqsadida foydalanish; turizmning ijtimoiy-gumanitar mohiyati va imkoniyatini dam olish, madaniyat, tarix va hayotni o'rganish bilan birlashtirish orqali ro'yobga chiqarish; turizm sohasiga mamlakatning ijtimoiy-madaniy muhiti hamda tarixiy-madaniy merosini kiritish va boshqalar.

Ichki turizm yoshlar tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi bilan birga ularda tabiat va jamiyat haqidagi ilmiy bilimlarni o'zlashtirishlariga ham samarali ta'sir ko'rsatadi. Talaba-yoshlar turistik faoliyatining o'quv va kognitiv funksiyasi talabalar tomonidan tabiiy hamda ijtimoiy muhitni o'rganish jarayonida amalga oshiriladi. Yo'nalishlar va sayohat obyektlarining xilma-xilligi yoshlarning bilim olishga, yangiliklarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi.

Ta'lim turizmida turistik faoliyat turli shakllar, mazmun va usullar bilan ajralib turadi, pedagog xodimlarning ta'lim, auditoriya va ta'lim muassasasidan tashqari ta'lim faoliyatining birligini aks ettiradi. Ta'lim turizmining ijtimoiy-pedagogik vazifalariga quyidagilar kiradi: ta'lim muassasasida o'quv-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish, ajdodlarimiz moddiy-ma'naviy merosidan faxrlanish, o'zga xalqlar madaniyatiga hurmat va muhabbat uyg'otish; o'quvchilarning aqliy, axloqiy, mehnat, estetik tarbiyasi, ularning jismoniy rivojlanishining birligini nazarda tutuvchi ta'limga kompleks yondashuvni amalga oshirish; yoshlar o'rtasida o'z zimmalariga olgan majburiyatlarni ixtiyoriy, ongli

va faol bajarish orqali ijtimoiy muhitni o'zgartirishda faol ishtirokchilar pozitsiyasini rivojlantirish. Ichki turizm, ya'ni fuqarolarning o'z mamlakatlarida sayohat qilishlari, xalq milliy-madaniy meroslarni o'rganishi, tadqiq qilish, shuningdek, iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashda, mahalliy jamiyat fuqarolarini ijtimoiy ongi, dunyoqarashini yuksaltirishda, yoshlarni ma'naviy-axloqiy fazilatlarini tarkib toptirishda muhim rol o'ynaydi.

Ichki turizmning afzalliklari quyidagilardan iborat:

1. Iqtisodiy afzalliklari: ichki turizm mahalliy iqtisodiyotning rivojlanishiga hissa qo'shadi. Sayohatchilar tomonidan sarflangan mablag'lar mehmonxona, restoran, transport va boshqa xizmat ko'rsatish sohasida ish o'rinlarini yaratadi.

2. Ijtimoiy-madaniy afzalliklari: ichki turizm milliy madaniyat, an'ana va urf – odatlarni keyingi avlodga yetkazish uchun saqlash hamda targ'ib qilish imkonini beradi. Sayyohlar xalqning milliy urf-odat va an'analari bilan yaqindan tanishib, ular haqida keng ma'lumotlarga ega bo'lishadi.

3. Tabiatni muhofaza qilish: ichki turizm asosida sayohatchilar atrofimizdagi tabiiy muhit bilan tanishishadi, mahalliy sayyohlarda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni saqlashga bo'lgan ishtiyoqni uyg'otishga yordam beradi.

4. Ta'lim-tarbiyaviy afzalliklari: ichki turizm asosida kelajak avlod tarbiyasida muhim o'zgarishlar sodir bo'ladi. Yoshlarni har tomonlama kamol toptirish, ma'naviy-axloqiy yuksaltirish, ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini rivojlantirish, jismonan hamda ma'nan sog'lom avlodni voyaga yetkazishda, malakali raqabatbardosh kadrlar tayyorlab yetkazishda, mamlakat ravnaqi yo'lida ilmiy tadqiqotlar olib borishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ichki turizm yoshlarni milliy qadriyatlar va tarixiy meros bilan tanishtirish orqali ularning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu jarayon yoshlarning faol fuqarolik pozitsiyasini kuchaytirish, ilmiy va ma'naviy-axloqiy, sog'lom dunyoqarashni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Turistik sayohatlarda yosh sayyohlar o'z xalqining tarixi, madaniyati, urf-odatlari, an'analari, axloqiy qarashlari bilan birga turli millat va elatlarning tarixi, madaniyati, ma'naviy-axloqiy qarashlari, axloqiy normalari urf-odatlari, an'analari, kundalik turmush tarzi, iqtisodi va hunarmandchiligi bilan tanishadilar.

Xalqning tarixini bilish, uning urf-odatlariga rioya qilish talabalarda bir-biriga va o'zga xalqlarga bo'lgan chuqur hurmatni tarkib toptirishga yordam beradi. Yosh sayyohlar nafaqat tarixiy voqealar haqidagi kitoblarni o'qishadi, balki tarixiy voqealar yuz bergan joylarda bo'lishadi, ajdodlarimiz qoldirgan boy ma'naviy meroslarni, tarixiy obidalarni, osori-atiqalarni o'z ko'zlari bilan ko'rishadi, ishonch hosil qilishadi. Shuningdek, yoshlar bilan olib boriladigan sayyohlik faoliyati muayyan ta'lim-tarbiyaviy tamoyillar asosida tashkil qilinadi. Yoshlar turistik faoliyatning ta'lim-tarbiyaviy tamoyillari, asosan, turistik sayohatlarni rejalashtirishda qo'llaniladi va ushbu muammoni ijobiy hal etishda tizimli yondashuvni talab qiladi. Ushbu tamoyil yoshlarning turistik faoliyatlarida belgilangan ishlarni amalga oshirishga tayyorlashda, sayohat zonasini o'rganishda, to'plangan materiallarni qayta ishlashda ham amalga oshiriladi. Unga quyidagi tamoyillarni keltiramiz: maqsadlilik tamoyili; pedagogik rahbarlik va talabalar tashabbuskorligining uzviy bog'liqligi tamoyili; bilish jarayonining yaxlitligi va

pedagogik ta'sirning birligi tamoyilidir; jamoaviylik tamoyili; talabchanlik va mas'uliyatlilik tamoyili; izchillik va tizimlilik tamoyili; madaniylik tamoyili.

Nazariy-metodologik nuqtai nazaridan turizmning yoshlar tarbiyasiga ijobiy ta'siri, pedagogik mohiyati, birinchi navbatda, uning gumanitar va ijtimoiy funksiyalari sharoitida ta'lim, tarbiya va shaxsni rivojlantirish jarayonlarini amalga oshirishga qaratilgan. Turistik faoliyat tarbiyaviy vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga xizmat qiladi. Ushbu tarbiyaviy vazifalar: boshqalarga nisbatan optimistik munosabatni tarbiyalash; shaxs mustaqilligi va barqarorligi; muayyan to'siqlarni yengib o'tish; qiyin vaziyatlarda chidamlilik, qat'iyatlilik; mustahkam iroda, samimiylik, birodarlik; o'zaro yordam berishga tayyorlik; hamkorlarga hurmat va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Ichki turizmdan yoshlar tarbiyasida foydalanishda metodik yondashuvlar va didaktik tamoyillarni ishlab chiqish zarur. Shuningdek, turizm faoliyatini nafaqat ko'ngilochar, balki o'quv va tarbiyaviy maqsadlar uchun ham yo'naltirish kerak.

Turizmni yoshlar tarbiyasida samarali qo'llash uchun har bir yosh guruhiga teng imkoniyatlar yaratish zarur. Umuman olganda, turizm yoshlarni tarbiyalashda samarali vosita sifatida foydalanilishi mumkin, agar u pedagogik va didaktik tamoyillar asosida tashkil etilsa, xavfsizligi ta'minlansa va barcha yoshlar uchun teng imkoniyatlar yaratishga yo'naltirilsa.

Mazkur tadqiqot turizmning didaktik tamoyillari va yoshlar tarbiyasiga ta'sirini o'rganish orqali bir nechta muhim xulosalarni chiqarishga imkon berdi:

Turizmning tarbiyaviy roli: turizm yoshlarning axloqiy, madaniy, ijtimoiy va ekologik rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Sayohat qilish orqali yoshlar yangi bilimlar o'zlashtirib, boshqa madaniyatlar va xalqlar bilan tanishadilar, bu esa ularning dunyoqarashini kengaytiradi va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Didaktik tamoyillarni qo'llash zaruriyati: turizm faoliyatini yoshlar tarbiyasida samarali qo'llash uchun pedagogik didaktik tamoyillarni aniq belgilash va ularga mos metodlarni ishlab chiqish muhimdir. Bu tamoyillar yoshlarning ma'naviy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlashda, ekologik ongni shakllantirishda va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishda katta rol o'ynaydi.

Talaba-yoshlar bilan olib boriladigan turistik faoliyatda ta'lim-tarbiyaning asosiy tamoyillari va qoidalariga amal qilish, ushbu faoliyat samaradorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri sanaladi. Turizmning pedagogik imkoniyatlari yoshlarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishda, ularning umumiy va kasbiy kompetentligini barcha tarkibiy qismlari, shu jumladan, ma'naviy-axloqiy kompetentligi va faolligini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Dissertatsiyaning **“Ichki turizm asosida yoshlar ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishning amaliy-texnologik tizimi”** deb nomlangan ikkinchi bobi ichki turizm asosida yoshlar ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishning mazmun va mohiyatini, yoshlarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini ichki turizm asosida shakllantirishning pedagogik modelini hamda ichki turizm asosida yoshlar ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishning amaliy-texnologik imkoniyatlarini o'z ichiga oladi.

*Ma'naviyat* – bu shaxsning ichki poydevori bo'lib, uni shaxs sifatida ajratib turadi, shaxsning ijodiy faoliyatini, uning qiziqishlari, ehtiyojlari, intilishlari,

e'tiqodlarini ifodalaydi. Shaxsning ma'naviy salohiyatini ro'yobga chiqarish hamisha haqiqat, ezgulik, go'zallik asosida yuksak maqsadlarga xizmat qiladi, bunda haqiqat – ong; go'zallik – bu xunuklikka qarama-qarshilik, o'z tajribalari va dunyoga munosabatini ifodalashning hissiy-emotsional shakli; ezgulik ma'naviyatning o'zagi, uning ma'naviy tayanchidir.

*Axloq* esa, shaxsning o'zaro bir-biri, jamiyat a'zolariga nisbatan qabul qilingan me'yorlar asosidagi munosabatlari, xatti-harakatlari majmui, jamiyat tomonidan qabul qilingan xulq me'yorlari yig'indisi sifatida tushuniladi. Shunday ekan, shaxs ma'naviyatini yuksaltirish zamirida axloqiy tarbiya masalalari muhim o'rin egallaydi.

*Ma'naviy-axloqiy* tarbiya deganda, insonning fikr va harakatlariga eng yuqori mazmun beradigan qarashlar, e'tiqodlar, shaxs rivojlanishi, ma'naviy-axloqiy fazilatlarni tarbiyalashni tushunamiz. Ma'naviy-axloqiy tarbiya yaxlit tarbiya jarayonining negizini tashkil qiladi. "Shaxs", "axloq", "ma'naviyat" tushunchalari haqida fikr yuritilar ekan, yoshlarning ma'naviyatini yuksaltirmay turib, haqiqiy bilim berib bo'lmasligini ta'kidlash o'rinlidir. Shunday ekan, shaxs kamolotida ma'naviy-axloqiy jihat ustuvor hisoblanadi. Afsuski, bugungi kunda global jamiyat a'zolari bo'lgan yoshlarimizning ma'naviy madaniyati ota-onalarni, pedagoglarni tashvishga sabab bo'lmoqda.

Ichki turizm asosida turistik obyektlarga sayohat uyushtirish ushbu maskanlarni o'rganish bilan birga me'moriy obidalar tarixini tadqiq etishga yaqindan yordam beradi. Shuning bilan birga har bir xalqning ko'p asrlik e'tiqodiy qarashlari, urf-odatlari, an'analari hamda moddiy-ma'naviy madaniyatining eng nodir namunalarini o'zida saqlab kelayotgan obyektlar me'morchiligining asriy va an'anaviy jihatlarni o'zida mujassamlashtirgani bilan ham keyingi davr uchun poydevor hisoblanadi. Binobarin, mamlakatimizdagi turistik obyektlar yoshlar ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllanishida o'sha davrlarda dasturi amal vazifasini o'tagan azaliy qadriyatlarimizning asl namunalarini, an'anaviy milliy urf-odatlarimizni ham o'zida mujassam etgan. Ichki turizm asosida yoshlarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishning mohiyati shundaki, ularda insonparvarlik, adolatlik, o'zini boshqalar bilan solishtirish va namunali xulq hamda ijobiy muloqot qilish, jamiyatdagi o'z o'rniga ega bo'lish, o'z maqsad va mo'ljallarini aniqlash, o'z-o'zini anglash va boshqalar bilan o'zaro munosabatlarda tolerantlik kabi fazilat hamda amaliy ko'nikmalarni tarkib toptirishdan iborat.

Ichki turizm asosida yoshlarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish, ularni insonparvarlik, adolat, tolerantlik, o'z-o'zini anglashga o'rgatadi, shuningdek, ularni o'z jamiyatining vatanparvar, mas'uliyatli, tashabbuskor, faol fuqarolari bo'lib yetishiga ko'maklashadi.

Tadqiqotimiz davomida yoshlar ma'naviy-axloqiy fazilatlarini ichki turizm asosida tarkib toptirishning tarixiy, ilmiy-nazariy hamda huquqiy asoslarini, yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasining hozirgi davr uchun zaruriyatini, ichki turizmni tashkiliy vazifalarini va pedagogik shart-sharoitlarini hisobga olgan holda yoshlar ma'naviy-axloqiy fazilatlarini ichki turizm asosida shakllantirishning pedagogik modeli ishlab chiqildi. Ushbu model bir nechta bosqichdan iborat bo'lib, o'z ichiga jarayonni amalga oshirishning maqsad va vazifalarini,

qonuniyatlarini, tamoyillarini, pedagogik shakl, usul va vositalarini, pedagogik shart-sharoitlarni, natijadorligini aniqlovchi me'zonlarni qamrab oladi. E'tiboringizga havola qilinadigan rasmda ichki turizm vositasida yoshlarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish jarayonining yaxlit pedagogik modeli aks ettirilgan (1-rasmga qarang).

Talaba-yoshlarni ichki turizm asosida ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishning pedagogik modeli quyidagi komponentlardan tashkil topgan: maqsadli blok, mazmunli-prossesual blok va natijaviy-baholash bloki.

**Maqsadli blok** – ichki turizm asosida yoshlarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishning maqsadi va vazifalarini o'z ichiga olib, bunda asosiy maqsad yoshlarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishga qaratiladi va vazifalar quyidagicha belgilab olinadi: yoshlarda ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirish; ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni anglashni ta'minlash; ma'naviy dunyoqarash va ma'naviy-axloqiy xis-tuyg'ularini shakllantirish; ma'naviy-axloqiy tajribani, xulq-atvor ko'nikma va odatlarini rivojlantirish; ma'naviy-axloqiy ongini shakllantirishdan iborat.

**Mazmunli-prossesual blok** o'zida jarayonni amalga oshirish tamoyillarini, tarbiyaviy jarayonni tashkil qilish shakllarini, usul va vositalarni qamrab oladi. Yoshlarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini turizm asosida tashkil qilish tamoyillari (prinsiplari) tanlandi bular: rivojlantiruvchi ta'lim-tarbiya tamoyili; ijtimoiy pedagogik hamkorlik tamoyili; differensial yondashuv tamoyili; ta'lim-tarbiya jarayonining integratsiyalashuvi tamoyili; shaxsga yo'naltirilgan yondashuv tamoyili; faoliyat ustuvorligi yondashuvi tamoyili; madaniy muvofiqlik tamoyili; ma'naviy-axloqiy tarbiya va taraqqiyotning ko'p millatlilik tamoyili; tarbiyada tizimlilik va individual yondashuv tamoyillaridan iborat.

Pedagogik modelda turizm asosida yoshlarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan tarbiyaviy jarayon shakllari sifatida quyidagilar keltirildi:

**Ommaviy:** bayram va marosimlar, urf-odat va an'analar bilan bog'liq tadbirlar, tarixiy obyektlarga ommaviy sayohatlar, ma'ruzalar, ko'rgazmalar, ommaviy ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar.

**Guruhli:** sayyohatlar, ekskursiyalar, bahs-munozara, diskussiyalar, ma'naviy-axloqiy mavzularda ma'ruzalar, loyihalar, seminarlar, tanlovlar, konferensiya, trening.

**Individual:** yakka tartibdagi sayohatlar, individual ekskursiyalar, mustaqil ta'lim, adabiyotlarni mutolaa qilish, individual trening, o'z-o'zini nazorat qilish va baholash. Yoshlar bilan o'tkaziladigan turli xil ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid tadbirlar, sayohatlar albatta o'z samarasini beradi.

**Mazmunli-prossesual blok** tarbiyaviy jarayonni tashkil qilish shakllari bilan birga uni samarali amalga oshirish metodlari hamda vositalarini ham o'z ichiga oladi. Yoshlarda ichki turizm asosida ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish metodlari sifatida: grafik organayzerlar, mantiqiy munozara, evristik suhbat, dialektik suhbat, loyiha usuli, kichik guruhlarda va jamoada ishlash metodlari tanlandi.



*Ichki turizm asosida yoshlarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish vositalari sifatida:* darslik, tarixiy va badiiy manbalar, tarqatma materiallar, audio va video materiallar, internet manbalari, jonli va jonsiz tabiat manzaralari, tarixiy obidalar tanlandi. Ko'p yillik tajribalarning natijasida ko'rinadiki, har qanday tadqiqotning samaradorligi unda tanlanga metod va vositalardan maqsadga muvofiq foydalanish bilan bog'liq.

Tarbiyaviy ishlar tizimida ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayoni uchun zaruriy sharoitlar yaratish ishning salmog'ini oshiradi. Ushbu modelda pedagogik shart-sharoitlarni quyidagicha ishlab chiqdik: ichki turizm asosida yoshlarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish modelini oliy ta'lim muassasalari pedagogik jarayoniga yaxlit tizim sifatida tadbiq etish; kasbiy ixtisoslikka oid madaniy yo'nalgan topshiriqlarni bajarishda, turizm va mamlakatshunoslikka oid elementlardan foydalanib talabalarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish; professional va kommunikativ amaliyotni tashkil etish hamda "Pilgrimage tourism for students" o'quv laboratoriyasi ishi orqali talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyati tajribasini shakllantirishga qaratilgan professional ta'lim muhitini yaratish; turizm vositasida talabalarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirish darajasini tizimli diagnostikasini o'tkazish.


**Natijaviy-baholash blokida** baholash mezonlari va darajalari keltirilgan bo'lib:

1. Natijalarni baholash mezonlari: kognitiv-aksiologik, dunyoqarash-refleksiv, konnatativ-funksional.

2. Natijalarni baholash darajalari: past, o'rta, yuqori qilib belgilab olindi. Natija sifatida yoshlarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarining shakllanganlik darajasining oshishini keltirishimiz mumkin.

Shunday qilib, tadqiqot maqsadlariga muvofiq biz yoshlarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirishning pedagogik vositalari, yoshlar ma'naviy-axloqiy fazilatlarining tarkibiy qismlari: axborot komponenti: ijtimoiy-madaniy bilimlar majmuasi, barqarorlik, kognitiv qiziqishlar; qadriyat komponenti: qadriyatlarga oid qarorlar mustaqilligi, hayotning o'zini-o'zi belgilashdagi ijtimoiy ahamiyatli tamoyillari va munosabatlari; konseptual komponent: atrofdagi haqiqatga munosabatni belgilaydigan va dunyoqarashni tavsiflovchi qarashlar, tamoyillar, e'tiqodlar to'plami, umuman, olamning mohiyatini tushunish va insonning bu dunyodagi o'rni; yo'naltirish komponenti: ijtimoiy-madaniy bilimlarni intellektual anglash, o'z hayotiy resurslarini, qobiliyatlarini anglash, o'z-o'zini qadrlash, aks ettirish faoliyati tajribasi; operativ komponent: turizmining faoliyat jarayonida turli vaziyatlarida bilimlardan, prinsiplardan, baholardan foydalanishga tayyorlik qobiliyati; bashorat komponenti: bilimlarni qo'llash qobiliyati, faoliyatdagi qadrlil va g'oyaviy-refleksiv jihat mazmuni asosida, turizm vositasida yoshlar ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishning pedagogik modeli ishlab chiqildi.

Yuqorida bayon qilingan ushbu pedagogik model turizmining pedagogik salohiyatini ro'yobga chiqarish va yoshlar ma'naviy-axloqiy fazilatlarini uzluksiz rivojlantirish kabi muhim pedagogik imkoniyatlarni amalga oshirish imkonini beradi.



**1-rasm. Ichki turizmi asosida talaba-yoshlarni ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishning pedagogik modeli**

Mazkur pedagogik modeldan ta'lim-tarbiya jarayonida samarali foydalanish, yoshlarda quyidagi ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi: qadriyat-me'yoriy asoslarni, madaniy va an'anaviy qoidalarni, me'yorlar va qadriyatlar tizimidagi bilimlar shakllanadi; madaniy va tarixiy jarayonning o'zgaruvchanligidan habardorlik; milliy madaniyatning jahon sivilizatsiyasidagi o'rni va rolining anglanganligi; hodisa va jarayonni ma'naviy-axloqiy nuqtayi nazari.

